

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 290 sahifa.  
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.*

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari .....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda .....	20
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
“Yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish .....	24
<b>Muhammadiyeva Maftuna</b>	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati .....	27
<b>Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna</b>	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
<b>Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich</b>	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
<b>Ахмедходжаев Равшан Темурович</b>	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari .....	49
<b>Toyirov Yunus Alamovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
<b>Rustamov Alisher Raxmataliyevich</b>	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
<b>Ustadjalilova Xurshida Aliyevna</b>	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
<b>Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich</b>	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
<b>Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich</b>	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
<b>Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
<b>Yuldashev Iskandar Bahromovich</b>	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar .....	86
<b>Jiyanova Nargiza Esanboyevna</b>	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
<b>Z. Abdikarimova, S. Madaminov</b>	
Savdo korxonalarini boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
<b>Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov</b>	
Sociological Assessment of Migration Processes .....	102
<b>Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli</b>	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy .....	112
<b>Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich</b>	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
<b>Эркинов Шахзод Баходир ўғли</b>	





Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce .....	125
<b>Abirkulova Sohijamol</b>	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan) .....	130
<b>Bakhrom Nomazov</b>	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	136
<b>Bozorova Saxobat Abdujapparovna</b>	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
<b>Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli</b>	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli .....	148
<b>Eshmirzayev Faruddin Ilxomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi</b>	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish .....	155
<b>G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li</b>	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks .....	160
<b>Juraev K. T.</b>	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish .....	164
<b>Mamasoatov Dilshod Ravshanovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda soliqlarning roli va ahamiyati.....	169
<b>Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich</b>	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
<b>Rahmatullayeva Dilbar Olimovna</b>	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish..	181
<b>Raxmatov Akmal Anvar o'g'li</b>	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
<b>Rofeeva Rukhshona Shavkatovna</b>	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
<b>Sabirova Asal Shuhratovna</b>	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region .....	196
<b>Shakhzod Zokhidov</b>	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish .....	202
<b>Kadirova Shaxnoza Ilhomovna</b>	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
<b>Usmonov Baxodir Suvonqulovich</b>	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari .....	211
<b>Nasimov Shavkat Vasiyevich</b>	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
<b>Zunnunova Xulkar Muxtorovna</b>	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish.....	225
<b>Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich</b>	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari .....	229
<b>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</b>	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
<b>Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich</b>	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
<b>Eshonqulov Azamat Abdiraximovich</b>	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlari yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
<b>Xidirov Alimardon Dagarovich</b>	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English .....	248
<b>Nilufar Turdiyeva</b>	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati .....	252
<b>Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li</b>	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi .....	256
<b>G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev</b>	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации .....	260
<b>Каюмова Паризода</b>	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...266	
<b>G. I. Abdulxamidova</b>	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива .....	272
<b>Shahzad Zokhidov</b>	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise .....	275
<b>Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich</b>	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан .....	282
<b>Холбекова Дилобар Расулжон кизи</b>	



# IQTISODIY XAVFSIZLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI



**Aripov Oybek Abdullayevich**

I.f.d., Namangan muhandislik-qurilish instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, prof.



**Madiyurov Shavkatbek Muxtarovich**

Namangan muhandislik-qurilish instituti  
magistratura 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati yoritib berilgan hamda “Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasining tavsifi keltirilgan. Kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan xavfsizlikni belgilovchi mezonlar ham o'zgarib borganligi to'g'risida mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat, iqtisodiy xavfsizlik, milliy manfaatlar, xavf-hatar, xavfsizlikni ta'minlash.

**Abstract:** The article reveals the essence of the concept of economic security. A description of the concept of “economic security” is given. It has been suggested that the criteria defining safety have also changed as human society has evolved.

**Key words:** state, economic security, national interests, risk, security.

**АННОТАЦИЯ:** В статье раскрыта сущность понятия экономической безопасности. Дано описание понятия “экономическая безопасность”. Было высказано предположение, что критерии, определяющие безопасность, также менялись по мере развития человеческого общества.

**Ключевые слова:** государство, экономическая безопасность, национальные интересы, риск, обеспечение безопасности.

## KIRISH

Jahon integratsiyasi va globalashuv jarayonlari avj olgan bir davrda inqiroz ta'sirini susaytirish va milliy iqtisodiyotlarning barqarorligini kuchaytirish, davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va uning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish juda muhimdir. Bunday paytda har bir mamlakatning iqtisodiy tuzilmalarini rivojlantirish shartli jarayon hisoblanib, iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish tizimining samaradorligini qayta ko'rib chiqish zarur masalalardan hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va xavfsizlikni boshqarishning yangi modellarini izlash orqali yangilashni taqazo etadi.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi milliy iqtisodiyot taraqqiyotida yangi sohalardan hisoblanadi. U mamlakat miqyosidagi iqtisodiy xavfsizlikning zaruriyatidan paydo bo'lgan tushunchadir. Milliy hudud, millat, tabiiy resurslar va umuman davlat chegarasi bilan muhofazalangan jamiyatning xavfsizligini ta'minlashni anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy manbalarda keltirilganidek, “xavfsizlik” tushunchasi Rober ma'lumotnomasiga ko'ra, 1190-yilda paydo bo'ldi. Unda o'zini har qanday xavf-xatardan himoyalangan deb hisoblovchi inson ruhiyatining xotirjam holati ifodalangan. Ushbu ma'noda mazkur termin G'arbiy Evropa xalqlari leksikonida XVII asrgacha qo'llanilgan<sup>1</sup>.

1 Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. –T.: Akademiya, 2006. 5 bet.






Iqtisodiy xavfsizlik masalasini o'rgangan V.K.Cenchagov<sup>2</sup> rahbarligidagi Rossiya halq xo'jaligi fanlar akademiyasi olimlari o'z tadqiqotlarida qadimda ham davlat xavfsizligi masalasiga jiddiy e'tibor berilganini ta'kidlaydilar.

Antik faylasuflar xavfsizlik va iqtisodiy hamda siyosiy munosabatlar muammolar o'zaro bog'liqligini ta'kidlab uning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ochib berishga harakat qilgan. Ular odatda "xavfsizlikni davlat va uning fuqarolarini g'ayritabiiy va yomon niyatli kuchlar, turli xil tahdidlardan himoya qilish"<sup>3</sup> deb baholashgan.

Demokrat "xavfsizlikni – insonning hayot sharoitlariga moslashishi va eng maqbul omon qolish ehtimolidir. Aynan ushbu zaruriyat insonlarni birlashib jamiyat yaratish va har birining himoyalanganlik darajasini oshirishga undadi"<sup>4</sup>, deb qaragan. Aristotel ham xavfsizlik mazmuni negizida shaxsning o'zini asrash muammosi turadi, degan fikrga kelgan<sup>5</sup>.

Bugungi kunda "iqtisodiy xavfsizlik" iborasi turli ilmiy manbalarda turlicha talqin etiladi. Bir guruh iqtisodchilar "...milliy manfaatlarni himoya qilish va ro'yobga chiqarish hamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash mexanizmlarini yaratishga qodirligi va tayyorligi deb talqin..."<sup>6</sup> qilsalar, ikkinchi guruh iqtisodchilari "...mazkur tushunchani xalqning mustaqil ravishda tashqi kuchlarning aralashuviz iqtisodiy taraqqiyot yo'li va shakllarini o'zi belgilab olishiga imkon beradigan holat sifatida tavsiflaydi"<sup>7</sup>. Xususan, akademik L. I. Abalkin iqtisodiy xavfsizlikni "milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, uning barqarorligi va chidamliligini, doimo yangilash va yaxshilash qobiliyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmui"<sup>8</sup> deb ta'riflaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda 1-rasmda keltirilganidek tavsiflari berilgan.



1-rasm: "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasining tavsifi<sup>9</sup> (V.L., Vasilenko, V.N.Bikov bo'yicha)<sup>10</sup>

Korxonaning iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilishga asoslangan nisbatan yangi yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni uning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, ya'ni korxonaning kadrlar va intellektual salohiyati, axborot, maxsus huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, axborot texnologiyalari va ijtimoiy xarakterdagi choratadbirlar tizimi taqdim etiladigan texnologiya, kapital va foyda. Bu yondashuvni U.T. Xaytmatov, O.X. Azamatov, R.R. Majidov, A.F. Hakimov, N. K. Muratova, I. A. Konopleva, I. A. Bogdanovlar olg'a surganlar.

Ko'rinib turibdiki, "iqtisodiy xavfsizlik" iborasidagi mazmunan ko'p qirrali bo'lib, terminologiya nuqtayi nazardan turli ma'nolarda talqin etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning oldiga qo'yilgan vazifalarini hal qilish maqsadida ilmiy bilimlarning umumiy usullari tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish, statistik kuzatish usuli, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash, umumlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblash, ma'lumotlarni taqdim etishning turli usullari qo'llanilgan.

2 Сенчагов В. К. Экономическая безопасность России. –М.: ДЕЛО, Общий курс под редакцией академика РАЕН. 2005 г. С.897.

3 История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.

4 История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.

5 Isroilov B.I. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb masalalari. // "Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi to'plami. TDIU, 2019.

6 Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. –М.: ЗАО "Финстатинформ", 1998. С. 12.

7 Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность России: определения гипотезы, расчеты. // Безопасность. 1994, №3, С. 8.

8 Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики. 1994. №12. С. 5.

9 Rasm muallif tomonidan ishlangan.

10 Василенко В.Л., Быков В.Н. О некоторых угрозах экономической безопасности России // <https://ru.wikipedia.org>



## TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatning iqtisodiy salohiyati rivojlangan sari, mamlakatga chetdan kirib keluvchi import tovarlarining ham soni ortib boradi. Bunda kirib kelayotgan har bir tovarning qonuniy ravishda mamlakat hududiga olib kirilayotganligi, aholining salomatligiga qay darajada ta'sir ko'rsatishini bilish mamlakat uchun muhim sanaladi. Bu o'z navbatida, mamlakatda iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. Aslini olganda, iqtisodiy xavfsizlik ham qaysidir ma'noda mamlakat xavfsizligining bir bo'lagi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sharoitida davlat xo'jalik subyektlari faoliyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashi va fuqarolarga ziyon keltirishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadda davlat, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, kichik va o'rta biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish, iqtisodiyot sohalari raqobatbardoshligini rivojlantirish, fond bozori, yer va ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo'ladi.

Iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish davlatning strategiyasi siyosati va iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi. U O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini, milliy boyligini ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoya qilishni ko'zda tutadi. Ushbu konsepsiya bu boradagi siyosatni belgilab beruvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Aslida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanishi tarixiga nazar solsak, xavfsizlik muammosi har qanday ijtimoiy tuzumda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Qadimdan har bir davlat o'z mustaqilligi yo'lida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy manfaatlarini qaror toptirish bilan bir qatorda, xavf-xatar, turli-tuman taxdidlarni oldini olish maqsadida o'zining strategiyasi va siyosatini ishlab chiqqan. Shu tarzda mamlakat xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti paydo bo'lgan.

Ko'rinib turibdiki, xavfsizlikni ta'minlash va mamlakatning iqtisodiy sohadagi milliy manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiyotni yuksaltirish va mustaqil rivojini ta'minlash har bir davlatning ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatining asosiy mazmuni hisoblanadi. Shunday ekan, mustaqillikning ilk yillaridan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy tizimi asoslarini tubdan o'zgartirgan O'zbekiston uchun keng ko'lamlı tub o'zgarishlar belgilangan edi. Aynan o'sha davrlarda iqtisodiy rivojlanishning har qanday darajasini baholash va mamlakatlar uchun dolzarb bo'lgan milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyatini baholash qiyin bo'lgan.

Xavfsizlik qanday sohada, qanday shakl va qiyofada namoyon bo'lmasin ularning barchasi umumiylik xususiyatiga egadir. Umuman, xavfsizlik xavf-xatardan himoyalash sharti va strategiyasi sifatida ijtimoiy tizim, shaxs, jamiyat va davlat hayot faoliyatining normal amal qilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'ladi<sup>11</sup>.

Biroq, har qanday holatda ham "iqtisodiy xavfsizlik" deganda, insoniyat hayotining iqtisodiy munosabatlarida vujudga keladigan xavf-xatardan himoyalash, kafolatlanish ma'nosini anglatadi. Shunday ekan, eng avvalo, iqtisodiyotning rivoji yo'lida yuzaga keladigan xavf-xatarni bartaraf etish choralari doimiy ko'rib borilishi kerak. "Xavf-xatar esa davlat va jamiyat rivojlanishiga, normal amal qilishiga tahdid soluvchi potentsial yoki real kuch, omil hisoblanadi. Xavf-xatar namoyon bo'lishining keskin shakllariga tabiiy, ijtimoiy kataklizmlar, portlashlar va larzalar, krizislar, tangliklar, revolyutsiya, qo'zg'olon, isyon, urush, qurolli to'qnashuvlar kiradi"<sup>12</sup>. Bugungi kunda insoniyat hayotida birinchi bor yuz bergan koronavirus pandemiyasi ham iqtisodiy munosabatlarni umuman to'xtatib qo'yishga olib kelgan xavf-xatarlardan biri deb hisoblaymiz. Koronavirus pandemiyasi butun jahon mamlakatlarini inqirozga yuz tutgan xatar ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Iqtisodiy xavfsizlikni rivojlantirgan holda moliyaviy bozorni yanada takomillashtirishimiz mumkin bo'ladi. Moliya bozorining rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan bank tizimini olib qarasaq. Banklarning barqaror faoliyati uchun jamiyatning butun bir bank tizimiga bo'lgan ishonchi yuqori bo'lishi kerak. Shunda aholining bo'sh turgan mablag'lari, jamg'arib boriladigan mablag'lari aynan bank tomonidan saqlanadi. Natijada banklarda pul aylanmasi tezlashadi va ularning mustahkam barqaror holatini saqlanishiga erishiladi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarning bank tizimiga, xususan dunyo miqyosida eng mashhur hisoblangan Shvetsariya bank tizimini olib qaraydigan bo'lsak. Bu bankning o'ziga xos jihatlardan biri, uning amaldagi soliq solish tizimi bilan bog'liq emasligidadir, ya'ni bunda bank operatsiyalari natijasida kelib tushgan daromadlar omonatchilarga sof holda, hech qanday qo'shimcha to'lov undirmasdan etib boradi. Bundan tashqari depozit qutichalari ham yuqori darajada kodlashtirilgan tizimga ega, hamda depozit egasining shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham sir saqlanadi. Bankdan foydalanuvchilarning huquqlari yuqori himoyalangan va bu o'z navbatida ularning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga zamin bo'ladi. Bizning mamlakatimizda omonatlarining xavfsizligi biroz sust rivojlangan. Omonatga pul mablag'larini qo'ygan shaxs ertaga uni hech qanday yo'qotishsiz olishiga ko'zi etmaydi. Shuning hisobiga aholi qo'lidagi jamg'arib borish darajasi biroz yuqori ko'rsatkichni ko'rsatadi. Bank tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatning ishonchini oshirish, ularning pul mablag'lari hamda turli depozit qutichalarida saqlanadigan qimmatbaho buyumlarining xavfsizligini ta'minlash moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

11 Основы экономической безопасности. – М., 1996. С.3.

12 "Iqtisodiy xavfsizlik" fanidan o'quv-uslubiy majmua (elektron manba). Tuzuvchilar: Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. –T.: O'zMU, 2018. 28 b.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiy xavfsizlik o'z navbatida, ma'lum bir usullar yordamida ta'minlanadi. Shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga oid axborotlarni topish va jamlashda omilli analiz usulidan foydalaniladi. Iqtisodiy xavfsizlikni omilli analizga asoslanmagan holda tadqiq etib bo'lmaydi, chunki iqtisodiy xavfsizlik ham bir tizim bo'lib, u bir qator o'zgaruvchi hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiy xavfsizlikni o'rganish omillari, omilli matritsa, deb nomlanuvchi indikatorlar (ko'rsatkichlar) bilan bog'liqdir. Omilli matritsa analiz davomida aniqlangan omil va indikatorlarning o'zaro bog'liqlik darajasini xarakterlaydi. Omilli analizning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlaydigan umumiy qoidalarni ishlab chiqish va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotini hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish jarayonidagi kamchiliklar bilan uzviy bog'lanishini ta'minlashdan iboratdir. Umuman olganda, iqtisodiy xavfsizlik mamlakat xavfsizligi deb bejiz ta'kidlanmaydi. Aholi iste'mol qiladigan har bir mahsulot iste'mol darajasiga tayyor bo'lishi bu o'ta muhim hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi qanchalik kuchli rivojlangan bo'lsa, kirib kelayotgan tovarlar, yaratilayotgan mahsulotlar shunchalik iste'molga yaroqli va sifatli bo'ladi, jamiyat xavfsizligi ta'minlanadi, ular turli yaroqsiz mahsulotlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklardan himoya qilinadi.

Demak, mamlakatning rivojlanishida uning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlay bilish muhim hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, bir tomondan davlat xavfsizligi hisoblansa, boshqa tomondan iqtisodiy rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики. 1994. №12. С. 5.
2. Abulqosimov H.P. Iqtisodiy xavfsizlik. –T.: Akademiya, 2006. 5 bet.
3. Василенко В.Л., Быков В.Н. О некоторых угрозах экономической безопасности России // <https://ru.wikipedia.org>
4. Жандаров А.М., Петров А.А. Экономическая безопасность России: определения гипотезы, расчеты. // Безопасность. 1994, №3, С. 8.
5. Isroilov B.I. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning dolzarb masalalari. // "Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyasi to'plami. TDIU, 2019.
6. История древнего мира/ Под ред. И.М.Дьяконова, В.Д.Нероновой, И.С.Свенцицкой. –М.: 1982. Кн. 2. С. 263, 288-294, 298, 303.
7. "Iqtisodiy xavfsizlik" fanidan o'quv-uslubiy majmua (elektron manba). Tuzuvchilar: Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. –T.: O'zMU, 2018. 28 b.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1998. 31 bet.
9. Сенчагов В. К. Экономическая безопасность России. –М.: ДЕЛО, Общий курс под редакцией академика РАЕН. 2005 г. С.897.
10. Temur tuzuklari: –T.: "Sharq", 2005 y. 159 b.
11. Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. –М.: ЗАО "Финстатинформ", 1998. С. 12.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

